

FONETIK O'ZGARISHLAR, URG'U VA BO'G'INNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA O'RGATISH

Baxridinova Nigora Bahtiyor qizi

Namangan davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
bahriddinovanigora02@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'quvchilar va oliy ta'lim muassalari talabalariga "Ona tili" , "Tilshunoslik" kabi fanlarda fonetik o'zgarishlar , urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida , ular bilan birgalikda o'qitish metodlari va texnologiyalari haqida so'z boradi. Bunda milliy an'ana va qadriyatlarimizga muvofiq bo'lgan "Ustoz va shogird suhbatlari" , " Bobomning hikmatlari" , "Milliycha garderob" kabi metod va texnologiyalardan foydalanilgan.

KALIT SO'Z VA IBORALAR. Fonetik hodisalar , tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in, so'z urg'usi , gap urg'usi, "Ustoz va shogird suhbatlari" , " Bobomning hikmatlari" , "Milliycha garderob" .

ANNOTATION. This article shows that the methods of teaching phonetic occurrences , accent and syllable based on national ceremonials in subjects such as " Mother tongue" and " Linguistics" to pupils and students. According to our national ceremonials, methods like "Conversation of teacher and pupil" , " Grandfather's words" , " National wardrobe" are used in this article.

KEY WORDS AND PHRASES. Phonetic occurrences, loss of sound , changing of sound , growth oh sound , open syllable, closed syllable , accent of word , accent of sentence, "Conversation of teacher and pupil" , " Grandfather's words" , " National wardrobe" .

KIRISH.

"Milliy qadriyatlarni o'quvchilarga o'rgatishda til asosiy vositadir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi va she'riyat orqali o'zbek tilining boy imkoniyatlari ochib beriladi"[1.103]. O'zbek tilida fonetik hodisalar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'qitish jarayoni o'quvchilarga nafaqat tilning nazariy asoslarini o'qitishda, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni singdirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bilamizki , o'zbek tilida fonetik hodisalar asosan uchta hisoblanadi. Ular tovush almashishi , tovush tushishi va tovush ortishidir. Bu hodisalar ayrim so'zlarga yoki so'z asosiga biror qo'shimcha qo'shganimizda sodir bo'ladi. Ochiqroq aytganda, talaffuz qulayligiga erishish maqsadida ketma- ket kelayotgan tovushlarga boshqa tovush yoki qo'shimcha ta'siri natijasida aodir bo'ladigan o'zgarishlarga fonetik o'zgarishlar deymiz. Fonetik hodisalarni fuziya deb ham ataymiz. Fonetik hodisalarni dars davomida tushuntirish biroz qiyinchilik va tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Chunki bu mavzu o'zi chalg'ituvchi o'rinlarga egadir. Darsni qiziqarli , maroqli va samarali , tushunishga oson qilish uchun biz o'zbek xalqi milliy qadriyatlariga tayanamiz. Darslarni milliy qadriyatlar asosida tashkil qilish nafaqat dars qiziqarli bo'lishiga, qolaversa, o'quvchilarning milliy qadriyatlar haqida tushuncha va bilimlar egallashiga ham yordam beradi. Savod chiqarishda va yozuvda bo'g'in katta ahamiyatga ega.Bo'g'in unli tovushlar asosida hosil bo'luvchi , bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar birikmasi hisoblanadi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bor degani. Demak, unli tovush yakka o'zi ham bo'g'in hosil qila oladi. Bo'g'inning 2 turi : ochiq va yopiq turlari mavjud. Ochiq va yopiq bo'lishiga unli yoki undosh tovush bilan tugashi sababchidir. Endi ana shu bo'g'inlardan biri yokida gap tarkibidagi so'zlardan birining qolganlaridan ko'ra kuchliroq talaffuz etilishiga urg'u deymiz. Urg'u ham ikki turli: so'z urg'usi va gap urg'usiga

bo'linadi. Urg'u va bo'g'inlarni milliy qadriyatlar asosida o'qitish o'zbek tilining xilma-xil xususiyatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu jarayonning ba'zi asosiy jihatlari bordir. Urg'u va bo'g'inlarni o'rganayotganda, milliy qadriyatlar va ularning tilga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumot berilishi muhimdir. Bu, o'zbek tilining o'ziga xosligini va madaniyatini ko'rsatadi. Urg'u so'zlar va iboralarning ma'nosini va hissiyotlarini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar maxsus urg'u va emotsiyalarni ta'minlaydi.

METODLAR.

“Fonetik hodisalar tilning ma’no ifodalash xususiyatini oshiradi va milliy madaniyatning boy ifodasidir. Ayniqsa, sheva va lahjalarda fonetik o‘zgarishlar orqali xalqning o‘ziga xos madaniy xususiyatlari aks etadi”[2.25]. Milliy qadriyatlar asosida fonetik o‘zgarishlarni o‘qitish borasida "Ustoz va shogird suhbat" nomli metod juda samarali hisoblanadi. Keling bu metod qanday ekanligini ko‘rib chiqamiz. Bu metod she’riy yo‘l orqali fonetik hodisalarni o‘quvchiga tushuntiradi. Bunda o‘quvchi ustozidan fonetik hodisalar nima ekanligini, uning sir-asrorini o‘rgatishini so‘raydi. Quyida shu metod keltirilgan:

"Ustoz va shogird suhbat"

Shogird:

-Kitoblarim varaqlab,
O‘tirilib o‘ylayman.
Fonetik hodisalar
Nimaligin bilmayman.
Fonetik o‘zgarishlar
O‘rgating menga, ustoz!
O‘rgating uning sirin,
O‘rganmoqchiman barin!

Ustoz:

- Xo‘p, yaxshi, bilimdonim,
Senga bir she‘r aytayin.
Diqqatingni jamlagin,
Senga tushuntirayin!
Fonetik hodisada
Bordir uchta o‘zgarish.
Ular esa quyida:

Tushish, ortish, almashish.

Men - mening, sen- sening
Qaratqichni qo‘shamiz. (-ning)
O‘g‘il-o‘g‘lim, bag‘ir - bag‘rim
Egalikni qo‘shamiz. (-(i)m)
Qiziq, bunda **n** va **i**
Qayerga g‘oyib bo‘ldi?
Tovush tushish hodisasi
Shunda namoyon bo‘ldi.
Deyildi va mavzuym
Asosdir *de* va *mavzu*.
"Y" qayeydan kelib qoldi?

Tovush ortishidir shu!
Olmoshlar- *u, bu, shu* ga
-da va *-day* ni qo‘shamiz.
Unda, bunda, shunday qilib ,
"N" ortganin bilamiz!
Tinglagin, bilag‘onim,
Almashishga keldi navbat.
Bularni yodlab olgin,
Bir kun asqotar , albat!
Sana, sanoq , sanog‘im,
Bo‘**ya**, bo‘**yoq**, bo‘yog‘im,
Tara, taroq, tarog‘im,
So‘**ra**, so‘**roq**, so‘rog‘im.
So‘zlar yasalishiga
Diqqat bilan razm sol,
Bunda tovush almashar,
Qara, o‘rgan, bilib ol.
Sondan sana, sanadan sanoq
Hosil bo‘ldi sanog‘im.
A—o ga , **q—g‘** ga
Almashdi , bo‘talog‘im.
Bo‘yog‘im va tarog‘im
Ham so‘rog‘im so‘zlari
Shu tarzda yasaladi.
Va yasalish chog‘ida,
Tovush almashinadi.
Mana senga fonetik
Hodisalarning siri.
O‘rganging kelaverar,
Sir ochilgani sari.
Shogird:
- Mehridaryo ustozim,
O‘rgatdingiz chin dildan.Sizga ta‘zim aylayin,
Rahmat, deb chin ko‘ngildan!

Bu she‘riy dialogda fonetik hodisalarning 3 turi misollar bilan tushuntirib berilgan. “Urg‘u va bo‘g‘in tilda nafaqat talaffuzning aniqligini, balki gapning ma‘no yukini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ularni o‘quv jarayonida milliy qadriyatlar bilan bog‘lab o‘rgatish samarali natijalarni beradi”[3.14].

"Bobomning hikmatlari" metodi.

Ushbu metod orqali ham urg‘u o‘rgatiladi ham milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan hikmatlar o‘rgatiladi. Bunda ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy hikmatlaridan foydalanamiz. Dastavval urg‘u bo‘yicha tushunchalar berilib, mavzu tushuntiriladi. Shundan so‘ng mavzuni to‘liq tushuntirish va

mustahkamlash uchun bu metod qo'llanadi. Darsda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar. Har bir guruh uchun to'rttadan Navoiy hikmatlari bo'lib beriladi, ammo, jumboqli tarafi shundaki, bu hikmatlar so'zlar o'rnini almashtirilib beriladi. O'quvchilardan 2 narsa talab qilinadi: 1) (so'z urg'usi bo'yicha) Urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushayotganini topishlari kerak.

2) (gap urg'usi bo'yicha) So'zlardagi urg'u tushgan bo'g'inlar topilib, tahlil etilgach, so'zlarning o'z o'rnini tiklab, hikmatlarni hosil qilishlari hamda o'sha gapdagi mantiqiy urg'u ya'ni, so'z urg'usi gapdagi qaysi so'zga tushayotganligini aniqlashlari kerak. Misol uchun:

1. E'tiborsiz, tilga, ixtiyorsiz, elga.
2. Til, xazinasining, ko'ngil, qulfi.
3. Imtiyozlidir, tili, odam, bilan, hayvonlardan.
4. Muxtasar, so'z, chin, yaxshi, mo'tabar, so'z.

1-topshiriq.

Yuqoridagi so'zlarda urg'u qaysi bo'g'inga tushayotganini aniqlang.

Topshiriq ijrosi:

1. E'tiborsiz, tilga, ixtiyorsiz, elga.
2. Til, xazinasining, ko'ngil, qulfi.
3. Imtiyozlidir, tili, odam, bilan, hayvonlardan.
4. Muxtasar, so'z, chin, yaxshi, mo'tabar, so'z.

2-topshiriq.

Yuqoridagi so'zlarni o'z o'rniga qo'yib hikmatlarni hosil qiling va undagi gap urg'usini toping.

Topshiriq ijrosi:

1. Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.
2. Ko'ngil xazinasining qulfi- til.
3. Odam tili bilan hayvonlardan imtiyozlidir.
4. Chin so'z - mo'tabar, yaxshi so'z - muxtasar.

"Milliycha garderob" metodi.

Bu metodda barcha o'zbek milliy liboslari sur'atlari jamlanadi. Aqlli doskada ular birma-bir o'quvchilarga namoyish etiladi. O'quvchilardan bu kiyimlar nomini topish va uni bo'g'inlarga ajratib talaffuz etish, ochiq yoki yopiq bo'lin ekanligini ajratish talab qilinadi. Masalan:

"Aziz o'quvchilar, ko'rib turganingiz - "Garderob"! Garderob bu kiyimlar turarigan shkaf. Keling biz bu shkafni ichini ochamiz va unda qanday kiyimlar borligini topamiz.



1. do'p-pi. Do'ppi so'zi 2 bo'g'indan iborat. 1-bo'g'in yopiq, 2-si ochiq.



2. atlas kuylak. Atlas so'zi 2 ta yopiq bo'g'indan iborat. Kuylak so'zi ham 2 ta yopiq bo'g'indan iborat.



3. belbog'. Belbog' so'zi 2 yopiq bo'g'indan tashkil topgan.



4. cho'girma- Xiva milliy bosh kiyimi. Cho'girma so'zi 2 ochiq va 1 yopiq bo'g'inlardan tashkil topgan. Shu tarzda davom etadi. Oxirida kiyim javoniga " Milliycha garderob" deb nom beramiz

NATIJALAR.

1. " Ustoz va o'quvchi suhbatlari" nomli metod qo'llash orqali:

- 1) Mavzu o'zgacha uslubda tushuntiriladi. O'quvchi doimiy, bir xil qoida- tushuntirishlardan qochadi, mavzuni o'zlashtirgisi kelmaydi. She'riy yo'l bilan esa intiqib tushunadi.
- 2) O'quvchilar diqqat- e'tibori jamlanadi, buning natijasida mavzu o'zlashtirilishi osonlashadi.
- 3) Mavzu bilan birgalikda ustoz- shogird an'anasi muqaddas qadriyatlardan biri ekanligi ham singdirib boriladi.

2. " Bobomning hikmatlari" metodi orqali:

- 1) O'quvchilar mavzuga bo'lgan qiziqishi ortadi
- 2) So'zlarni o'z o'rniga qo'yish chog'ida ularning aqliy salohiyati yuksaladi.
- 3) Har bir so'zni o'qish va urg'uni qo'yish orqali mavzu o'rganiladi.
- 4) Hikmatli gaplarni o'qish orqali o'quvchilarga didaktik tomondan ta'sir etiladi.
- 5) Ham mavzu ham milliy qadriyatlardan biri hikmatli so'zlar o'rganiladi.

3. " Milliycha garderob" metodi orqali:

- 1) O'zbek milliy kiyimlari tanishtirib o'tiladi.
- 2) O'quvchi diqqat- e'tibori bir nuqtaga qaratiladi va o'quvchi nima sodir bo'lishini intiqlik bilan kutadi.
- 3) Kiyim haqida o'ylashi orqali uning aqliy salohiyati rivojlanadi hamda tasavvuriga muhrlash orqali unda xotira mustahkamlanadi.
- 4) Kiyim nomlarini bo'g'inlarga bo'lish oson va tushunarli bo'lgani sababli o'quvchi yaxshi o'zlashtiradi va esdan chiqarmaydi.
- 5) Kiyimlarni ozoda va tartibli saqlash haqida uqtirib ketish orqali didaktik ta'sir o'tkaziladi.

MUHOKAMA.

Biz yuqorida qo'llagan metodlarimiz o'zbek tilini o'qitishda qanchalik o'rinli va samarali? Uning salbiy va ijobiy tomonlari bormi? Ulardan ko'zlangan maqsad nima? Yuqoridagi kabi metodlar qo'llashimizdan asosiy maqsad - o'zbek tilini milliy qadriyatlar asosida o'qitishdir. Nega aynan milliy qadriyatlar? Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda chetdan turli xil unsurlar kirib kelyapti. Qaysi sohani qaramang hamma yerda yangilanishlar, yevropa unsurlari. Biz axir o'zbeklarmiz. O'z milliy qadriyatlarimizni bilishimiz, ularni doimo e'zozlab, hurmat qilishimiz kerak. Bu qadriyatlar bizga ona tilimiz bilan birga singadi. "Ustoz va shogird suhbatlari" metodi haqida to'xtalsak, qadim-qadimdan o'zbeklarda ustoz-shogird an'anasi bordir." Ustoz- otangdek ulug'" deyishadi xalqimizda. Hayotda

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-1

adashmaslik, xato qilmaslik uchun ustozlar bordirlar, ular bizga bilmaganimizni o'rgatib , o'qimaganimizni o'qitib-uytirib qo'yishadi. Insonning vaqti kelib kelajakdagi yutuqlari shu ustozlari tufayli bo'ladi. Bu metod o'quvchilarga shu jihatlarni singdiradi. Ijobiy tomoni ham til ham qadriyat o'rgatiladi. " Bobomning hikmatlari" metodi ham xuddi shu jihatlarni qamrab oladi. Hikmatli so'zlar odamlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Yomonlikdan yiroq qiladi. Metod nomlanishi ham bejizga emas. O'zbeklar tushunchasida bobo - shaxsiyati ulug' , hayotning past-balandini bilguvchi va shu sababli , ko'pni ko'rgan hisoblanuvchi shaxsdir. Bu metodning maqsadi hikmatlar orqali urg'uni o'rgatish. Ijobiy tomoni ham urg'uni o'rganadi va o'rganish chog'ida hikmatlarni yodlaydi. " Milliycha garderob" metodi bo'g'in mavzusini o'zbek milliy kiyimlari, liboslari asosida o'rgatadi. Bunda milliy liboslarni bilmagan o'quvchi bilib oladi. Shu bilan birga bo'g'in mavzusini ham o'zlashtiradi.

XULOSA.

O'zbek tilida fonetik hodisalar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'qitish, talabalarning til bilimini oshirish barobarida ularni milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni hurmat qilishga va qadrlashga undaydi. Bunda amaliy va nazariy metodlarni birgalikda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Fonetik hodisalar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'rgatish o'quvchilarda nafaqat o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatni, balki milliy o'zlik va qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Zaripov T. Milliy qadriyatlarning til ta'limidagi o'rni // Pedagogik izlanishlar to'plami. – 2019. – №4(7). – B. 101–108.
2. Karimov A. Fonetik hodisalarning milliy madaniyat bilan bog'liqligi // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2020. – №2(5). – B. 23–29.
3. Norqulova G. O'zbek tilida urg'u va bo'g'inni o'rgatish metodikasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2017. – №6(18). – B. 13–17.
4. Qodirov M. O'zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
5. Saidov B. O'zbek xalq she'riyatida urg'uning roli // Filologiya va madaniyat. – 2018. – №3(12).
6. Navoiy A. Xazoyin-ul maoniy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1948.